

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MILLIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

Daminova Shohista

Osiyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Sifatli ta'lim kelajakni yaratishdagi asosiy omildir. O'qituvchilik kasbini tanlagan har bir odam buni his qilib turishi kerak. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov — “Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand etish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi lozim,” - degan edi. Ustoz qanchalik o'z ustida ishlab, zamon bilan hamnafas bo'lsa, o'quvchilarni ilm olishga qiziqтира oladi. O'qituvchilar har bir o'quvchida ijodkorlik qobiliyatini kashf etib buni to'g'ri yo'naltira olsa, bu butun bir jamiyat kelajagiga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi.

Kalit so'zlar: *Ta'lim, ijodkorlik, maktab, o'quv jarayoni, metod*

KIRISH

Zamonaviy pedagog bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy ma'rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiysiyosiy dunyoqarashini takomillashtirish pedagogik usullarini asoslari haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'nalishlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagog asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doyr qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi.

O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini Pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy pedagogik ishlar qonuniyati Pedagogikaning maktabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta'lim-tarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi metodika fanlari ham Pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir.

Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o'rganish metodikasi, chet el adabiyotini o'rganish metodikasi, xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifa-sini bajaradi.

Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlar o'sha o'quv predmetini o'qitish tajribasidagi o'ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o'ziga xoslikda o'qitishning universal jihatlarini namoyon etadi.

Zamonaviy o'qituvchining mazmuni va faoliyatini o'rganish bilan bog'liq holda uning "repertuar" rolini kengaytirish masalasi e'tiborga loyiqdir. O'qituvchining mehnat xatti-harakati modeli kasbiy faoliyatning motivatsion, maqsadli va bajaruvchi bloklarini o'z ichiga oladi. O'qituvchining kasbiy faoliyatining ijro bloki tartibga solish va mehnat ko'nikmalari bilan bir qatorda o'qituvchining o'quv jarayonining barcha sub'ektlari bilan o'zaro munosabatini ta'minlaydigan kasbiy rollarni o'z ichiga oladi. Bularga tahlilchi, g'oya ishlab chiqaruvchisi, resurslarni o'rganuvchi, motivator,

harakatlarni muvofiqlashtiruvchi, amalga oshiruvchi, yakunlovchi, kommunikator va boshqalar rollari kiradi. So'nggi yillardagi dissertatsiya materiallari asosida va zamonaviy o'quv amaliyoti tendentsiyalarini hisobga olgan holda, ushbu ro'yxatni osongina repetitor, fasilitator, rahbar, maslahatchi va boshqalar rollari bilan to'ldirish mumkin. bizning fikrimizcha, zamonaviy pedagogik faoliyatning kuchayishi va energiya iste'molining sezilarli darajada oshishi sabablaridan biridir.

Shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbga qiziqishi, u bilan shug'ullanishga bo'lgan layoqati belgilanadi. N.V.Kuzmina shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uch xil holatda bo'lishini ta'kidlaydi:

- 1) haqiqiy pedagogik;
- 2) rasman pedagogik;
- 3) yolg'on pedagogik yo'nalganlik.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda faqatgina birinchi holatdagi pedagogik tayyorgarlik yuqori natijalarni qo'lga kiritilishiga yordam beradi. Haqiqiy pedagogik yo'nalganlikning asosiy motivi pedagogik faoliyatga qiziqish hisoblanadi. Tadqiqotchilar (N.V.Kuzmina, G.A.Myurrey, A.Adiner, N.A.Aminov va boshqalar) shaxsning pedagogik faoliyatga intilish motivlarini o'rganar ekanlar, ularni quyidagi uch turga ajratadilar:

- majburiylikka asoslanuvchi sabablar mavjudligini ifodalovchi motivlar;
- muayyan fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishga asoslanuvchi motivlar;
- bolalar bilan muloqotga intilish ehtiyojining mavjudligini aks ettiruvchi motivlar.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarni o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini Pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Drobotenko Yu.B., Makarova N.S., Chekaleva N.V. Zamonaviy universitetning o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni o'rganish: tegishli metodologiyani tanlash muammosi. 2013y
2. Chelyabinsk davlat pedagogika universiteti axborotnomasi. - 2013. - No 10. 47–58.b
3. Qodjaspirova G.M., Kodjaspirov A.Yu. Pedagogika lug'ati. M.: IKTC "Mart", 2005. - 448 b.
4. Shakurova A.V. O'qituvchilarning kasbiy o'ziga xosligi mehnat faoliyati sub'ektlari sifatida: dissertatsiya avtoreferati. ... sotsiologiya fanlari doktori. - Nijniy Novgorod, 2014. - 51 b.